

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 9 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Ақтамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Mamatjonov Rahimjon Akramovich*
“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI 10-16
- Облобердиев Жасурбек Косим угли*
МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ 17-22

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Турсунов Бекмухаммад Омонович*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ 23-34
- Курпаяниди Константин Иванович*
ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ 35-44
- Ahmedov Shohjaxon*
O‘ZBEKISTONDA SHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI 45-51
- Кулибоев Азамат Шоназарович*
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ 52-62
- Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ 63-73
- Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*
TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 74-80
- Davronov Istamxo‘ja Olimovich*
МЕНМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СИФАТИНИ ВАНОЛАШ USULLARI 81-86
- Маматов Бахадир Сафаралиевич*
ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ 87-96
- Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*
КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ 97-104
- Баратов Махсудали Назиралиевич*
МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ 105-116

Ergashev Islom Ismoilovich

KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 117-127

Қодиров Азизжон Анварович

ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ 128-136

Эшонкулов Акмал Кудратович

ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 137-142

Астанов Шерзод Рустамович

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 143-150

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich*

YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI 151-155

Turabova Sevara Kattaqulovna

BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR 156-164

Alimatova Nargis Abduxalilovna

BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI 165-174

Allayarova Marhabo Mavlonovna

UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI 175-179

Рахманов Баҳодир

СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ 180-186

Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich

ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI 187-191

Mirzaxalov Xojiaqbar Tajibayevich

JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI 192-197

Azimov Ashirali Mehmonboyevich

XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOY BARQARORLIKKA TA'SIRI 198-202

Azimov Sherzod

PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY 203-207

Абдурахмонович Хасан Иброхимович

ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ 208-216

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI 217-223

Teshabaeva Dilfuza Muminovna, Abduxalilova Gulbaxor Karabaevna

ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА

ЯСАЛИШИ 224-230

Abdinazarov Uktam Qushoqovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

Axmedova Shaxodat Maxmutovna

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI 242-246

Vositov Otabek Toxirjonovich

TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIKA

GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI 247-253

Hodir Raхmatullaev

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ 254-260

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ 261-270

Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI

INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI 271-276

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*

OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV

KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH 277-281

Umarova Zaxro Abduraxim qizi

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH

(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI 282-287

Kadirov Ramz Turabovich

TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI

MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) 288-295

Khabiba Madaminovna Jurabekova

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE

COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS 296-302

| | |
|---|---------|
| <i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i> KLAUSTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELASHTIRISH MASALALARI | 303-310 |
| <i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i> MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI | 311-316 |
| <i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH | 317-322 |
| <i>Yulbarsova Xurshida</i> BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK JIHATLARI | 323-329 |
| <i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i> BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH | 330-335 |
| <i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i> O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI | 336-341 |
| <i>Tajibayeva Ma'mura Tojiddinovna</i> AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH | 342-346 |
| <i>Askarova Zulayxo</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI | 347-352 |
| <i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i> EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS | 352-362 |
| <i>Jumaniyazova Go'zal</i> OLY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI | 363-367 |
| <i>Xusaanova Leyla Yunusova</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ | 368-373 |
| <i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i> МАТЕМАТИК КРЕАТИВ ТАВСИФДАГИ MASALALARNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI | 374-379 |
| <i>To'xtasinov Muhammadjon</i> PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI | 380-384 |

Eshnazarov Murod Karimovich

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI385-391

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna
“Menejment” kafedrası tayanch doktoranti
Farg‘ona politexnika instituti

TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot muassasalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish, mamlakatimizda Sog‘liqni Saqlash tizimiga e‘tibor, tibbiy xizmatlar bozorining o‘ziga xos xususiyatlari va tibbiyot muassasalarining rivojlanish tendensiyalari, mijozlarni jalb qilish strategiyalari yoritilgan, shuningdek, tahlil va baho berilgan. Tibbiy tashkilotlarda muntazam ravishda o‘qitish, xodimlarni rivojlantirish, ishonchni mustahkamlash, barcha mavjud xavflarni hisobga olgan holda kompleks takomillashtirish choralarini zarur. Korxonaga imidjiga, boshqaruv jamoasi faoliyatiga ta‘sir etuvchi muhim ichki va tashqi omillar, raqobatbardoshlik bo‘yicha taklif va mulohazalar ko‘rsatilgan. Samarali boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish muammolari yoritilgan.

Kalitso‘zlar: raqobatbardoshlik, strategiya, risklar, potentsial mijozlar, ijtimoiy media marketing, resurslar, menejer.

Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna
Doctoral student of the Department of the Management
Ferghana Polytechnic Institute

IMPROVING COMPETITIVE MANAGEMENT IN MEDICAL INSTITUTIONS

Abstract. The article describes the improvement of the management system of the competitiveness of medical institutions, attention to the health care system in our country, the specific characteristics of the medical services market and the development trends of medical institutions, strategies for attracting customers, as well as analysis and evaluation. Medical organizations need regular training, staff development, confidence building, comprehensive improvement measures taking into account all existing risks. Important internal and external factors affecting the image of the enterprise, the management team's activities, suggestions and comments on competitiveness are shown. The problems of developing an effective management strategy and its implementation are highlighted.

Key words: competitiveness, strategy, risks, potential customers, social media marketing, resources, manager.

Абдурахманова Шохида Равшановна
докторант кафедры “Менеджмент”
Ферганский политехнический институт

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНКУРЕНТНОГО УПРАВЛЕНИЯ В МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. В статье описаны совершенствование системы управления конкурентоспособностью медицинских учреждений, внимание к системе здравоохранения в нашей стране, особенности рынка медицинских услуг и тенденции развития медицинских учреждений, стратегии привлечения клиентов, а также анализ и оценка. Медицинские организации нуждаются в регулярном обучении, повышении квалификации персонала, повышении доверия, комплексных мерах по оздоровлению с учетом всех существующих рисков. Показаны важные внутренние и внешние факторы, влияющие на имидж предприятия, деятельность управленческого коллектива, предложения и замечания по вопросам конкурентоспособности. Освещены проблемы разработки эффективной стратегии управления и ее реализации.

Ключевые слова: конкурентоспособность, стратегия, риски, потенциальные клиенты, маркетинг в социальных сетях, ресурсы, менеджеры.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N08>

Kirish. Davlatimizning aholi salomatligini mustahkamlash va sog'lig'ini saqlash siyosati fuqarolarimiz uchun tibbiy xizmatlarini takomillashtirish, tashxis qo'yish va davolashning dunyo standartlariga javob beruvchi mexanizmlarini ishlab chiqish, kasalliklarni oldini olishga yo'naltirilgan. Bu siyosat orqali har yili fuqarolar salomatligi muhofaza qilinadi va ularga sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi uchun mablag'lar ajratiladi. Sog'liqni saqlash tizimiga mablag'lar ajratish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda tibbiyot sohasidagi innovatsion loyihalar moliyalashtiriladi va bu loyihalar orqali fuqarolar salomatligini saqlash, davolash, reabilitatsiya, kam ta'minlangan aholi, nogironlar uchun moliyaviy resurslar ta'minlanadi. Bu jarayonda tibbiyot sohasidagi malakali kadrlar tayyorlanishi, xizmatlar sifatining nazorati, raqobatbardosh ustunliklar va fuqarolarga yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatilishi ta'minlanadi. Davlatimiz tomonidan salomatlik sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda, bu jarayonda tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlik tizimini takomillashtirish, tibbiyot xizmatlari bo'yicha o'zaro tajriba almashinish, tibbiyotga xalqaro kreditlar va grantlar taqdim etish kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida Respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish xamda soha rivojlanishi uchun ko'plab maqsadlar belgilangan. [2] Xususan, davlatimiz tomonidan tibbiyot sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi keskin oshirildi. 2022 yilning o'zida sohaga byudjetdan 24 trillion so'm mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, unga qo'shimcha yana 3,5 trln. berilishi belgilandi. Shu davr mobaynida, shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori-darmon, tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar 12 barobar ko'paytirildi. Sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash uchun xalqaro moliya tashkilotlaridan 700 million dollardan ziyod mablag'lar jalb qilindi. Bu mablag'lar orqali, sog'liqni saqlash tizimi muassasalari moddiy texnik bazasini kuchaytirishga imkon berilmoqda va aynan shu muassasalar orqali aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va foydalanish qulayligi oshirilmoqda. [15] Davlatimizda qabul qilingan ko'plab qonun va farmonlar sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, muassasalarning raqobatbardoshligini oshirish va tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaratishga qaratilgan. Biroq, barcha sa'y-harakatlarga qaramay, tibbiy xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi bir qancha muammolarga, jumladan, xizmatlar bozori sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asoslarning kamligi,

qonunning ayrim qoidalari bajarilmasligi, pullik va bepul tibbiy xizmatlarning chalkashligi, tizimli ilmiy-uslubiy ta'minotning etishmasligi, kadrlarning salohiyati pastligi, marketing va menejment tizimining rivojlanmaganligi xizmatlar sifatining pasayishiga olib keladi. Bu jarayonlarning barchasi korxonalarda to'g'ri tanlangan raqobat strategiyasini shakllantirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qo'yilgan masala bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili raqobatbardoshlik strategiyasi haqida ko'plab olimlar izlanishlar olib borganligini ko'rsatadi, jumladan xorijiy olimlar Porter M, Makkonel K.R., Bryu S.L, Tompson A.A., Minsberg G, Druker P lar, rus olimlaridan Fatxutdinov R.A., Babkina T.N., Mokronosov A.G., Mavrina I.N., Shaxbanova I.K lar, mahalliy olimlarimiz Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'rayev T., Yo'ldoshev N.Q., B.Kattakishiyevlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotining asosiy metodologik tamoyillari tashkilotlarning raqobatbardoshligi sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning fundamental tadqiqotlariga asoslanadi. Ishni tayyorlashda tibbiyot tashkilotlaridagi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni tizimli tahlil qilishga asoslangan zamonaviy kontseptual qoidalar va nazariy tadqiqotlardan foydalanilgan. Tadqiqot muammolarini hal qilishda tizimli-funksional, qiyosiy, iqtisodiy-statistik, iqtisodiy-matematik kabi turli xil ilmiy bilish usullari majmuidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bozor iqtisodiyotining muhim qismi sanaladigan raqobat tadbirkorlarning ilmiy izlanishlar va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari natijasida paydo bo'ladigan yangi mahsulot va xizmatlarining tez joriy etilishiga, brending jarayonining muvaffaqiyatli o'tishiga, bozor segmentida etakchilikka undaydi. Bozordagi raqobat tufayli potentsial mijozlar ehtiyojlari bilan mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarish rejalarining muvozanati, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda ishlatiladigan resurslardan oqilona foydalanish, daromadni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ular erishgan faoliyatining iqtisodiy natijalariga muvofiq taqsimlash amalga oshiriladi.

Maykl Porter tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: "...raqobatning mohiyati beshta kuch bilan ifodalanadi: yangi raqobatchilarning paydo bo'lish xavfi; o'rinbosar-tovarlar paydo bo'lishi xavfi; butlovchi buyumlar yetkazib beruvchilarning savdolashish imkoniyati; iste'molchilarning xarid jarayonidagi savdolashish imkoniyati; mavjud raqobatchilarning o'zaro bellashuvi. Har bir beshta kuch ahamiyati tarmoqdan tarmoqqa o'zgarib boradi, pirovardida tarmoq foydasini aniqlaydi». [3] Undan tashqari, Makkonnell K.R., Bryu S.L.: "Bozorda ko'p sonli erkin sotuvchi va xaridorlarning mavjudligi, sotuvchi va xaridorlar uchun bozorga erkin ravishda kirish va uni tark etish mumkinligi" [4], Fatxutdinov R.A.: "Tabiiy holatda yoxud qonunchilik doirasida ob'yektiv va sub'yektiv ehtiyojlarini qondirishi uchun raqobatchilar bilan kurashda g'olib chiqish yoki boshqa shu kabi maqsadlarga erishishi uchun aniq bozor (hudud)da sub'yektlarning o'z raqobat ustunliklarini boshqarish jarayoni"[5]. Babkina T.N.: «... yuqori daromad, foyda, boshqa naflikka ega bo'lish maqsadida tovar sotish bozorlari uchun kurashni o'z ichiga olgan tovar ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar), umumiy holda – har qanday xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi bellashish» [6], Mokronosov A.G va Mavrina I.N quyidagi ta'rifni taklif qilishadi: "mahsulotning (xizmatning) raqobatbardoshligi uning sifatidan farqli o'laroq, faqat ma'lum bir xaridor uchun aniq qiziqish uyg'otadigan va uni qondirishni ta'minlaydigan o'ziga xos xususiyatlarning yig'indisi bilan belgilanadi. o'ziga xos ehtiyoj - boshqa xususiyatlar hisobga olinmaydi" [7]. Shaxbanova I.K ta'rifiga ko'ra,

“raqobatbardoshlik har qanday tashkilotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xususiyat bo'lib, u raqobatga dosh bera olish va bir xil sohadagi boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'proq foyda olish qobiliyatidan iborat. Raqobatbardoshlikka ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, marketing tizimi, kadrlar resurslari, soliq muhiti, ishlab chiqarishning texnologik darajasi, moliyalashtirish manbalari kabi omillar ta'sir ko'rsatadi” [8].Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'rayev T.: “Raqobat-bozor sub'yektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi” [9], O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi Qonuni: “..xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi».[1]


Yuqoridagi raqobatbardoshlik tushunchasidan tashqari aynan tibbiyot tashkilotlari raqobatbardoshligi tushunchasiga alohida ta'riflar keltirilgan.M.Porter sog'liqni saqlash sohasidagi raqobat muammosini birinchilardan bo'lib o'rgangan. “Raqobat” kitobining “Ijtimoiy muammolarning raqobatbardosh yechimlari” uchinchi qismida olim “Sog'liqni saqlash sohasida raqobat bilan bog'liq muammolar bormi?” degan mushkul savolga javob izlaydi. M. Porter shunday deb yozgan edi: «AQShda sog'liqni saqlash sohasidagi raqobat G'arbning boshqa sanoat mamlakatlariga qaraganda ancha rivojlangan» [3].Arabchikov K.N.: “Sog'liqni saqlash korxonasiining raqobatbardoshligi-bu xususiy sog'liqni saqlash korxonasiining ma'lum vaqt oralig'ida tibbiy xizmatlar bozoridagi qiyosiy ustunligi bo'lib, u yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni bozor narxlarida sotish, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni va o'zining investitsion jozibadorligini ta'minlash imkonini beradi”. [10] Karamova A.S: “Tibbiy xizmatlarning xaridorlari va provayderlari o'rtasidagi raqobat barcha sog'liqni saqlash sub'ektlarining tibbiy yordam ko'rsatishning yanada oqilona tizimini shakllantirish bo'yicha maqsadli harakatlarini to'ldirishga va kuchaytirishga qodir”. [11] Phillipov K.A.: “Sog'liqni saqlash sohasidagi raqobat asl ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning holati va jarayoni sifatida talqin etiladi. Bemorning ehtiyojlarini qondirish uchun sog'liqni saqlash tashkilotlari yoki tibbiyot xodimlari o'rtasida raqobat tushuniladi”. [12] Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti: “Tibbiy xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik quyidagilar bilan belgilanadi: “ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va samaradorligini tartibga solish, provayderlarni akkreditatsiya qilish, kasbiy tayyorgarlik, tibbiy texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, bemorlarning xizmatlardan foydalanishini tartibga solish, tibbiy xizmatlardan foydalanishni tartibga solish. farmatsevtika bozori, davlat sektorida tibbiy xizmatlar narxlarini tartibga solish, to'lovchilarni tartibga solish, shifokorlarni tartibga solish”.

Ko'plab adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalar raqobatbardoshligi umumiy nazariy masalalariga bag'ishlangan ko'plab ishlarga qaramay, hozirgi vaqtda tibbiy xizmatlar bozorida tibbiy tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashning yaxlit ilmiy va uslubiy asoslari mavjud emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, “tibbiy tashkilotning raqobatbardoshligi” toifasining umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin.Tibbiy xizmatlar bozorida xo'jalik yurituvchi subyekt darajasida raqobatbardoshlikni baholash va oshirish masalalari amaliy o'rganilmagan. Sog'liqni saqlash tashkilotining raqobatbardoshligi va tibbiy xizmatlarning raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlik o'rnatilmagan. Tibbiy xizmatlar bozoridagi raqobatning o'ziga xos xususiyatlari batafsilroq rivojlanishni taqozo etadi.

2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonda sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasidagi xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 10 639 birlikni, shularning ichida 9033 birligini kichik tadbirkorlik sub'yektlari tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Davlat shifoxonalari bilan birga xususiy meditsina ham rivojlanmoqda va ularning soni va taqdim etayotgan xizmatlar sifati kundan kun oshib bormoqda. 2019-yilda 575 ta xususiy tibbiyot muassasasi mavjud bo'lib, bu son 2020-yilda 593 ga, 2021-yilda 637 ga, va 2022-yilda 675 ga oshdi. Bu rivojlanish sog'liqni saqlash sohasida raqobatni oshirishga yordam beradi va aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tibbiyot muassasalari sonining ko'payishi va ularning xizmatlariga bo'lgan talab iste'molchilarning nafaqat davolanish sohasidagi, balki xizmat ko'rsatish sohasidagi ehtiyojlarini tushunish, boshqaruvning zamonaviy innovatsion usullarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Yuqori darajali professional tibbiy xizmatlarni taqdim etish, mijozlarda ishonch tuyg'usini shakllantirish, zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan ta'minlanganlik xususiy tibbiyot tashkilotlarini raqobatda ustun bo'lishiga zamin yaratadi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 1 688,4 mlrd. so'mga, ya'ni ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,7 % iga yetdi. Taqqoslash uchun: 2019-yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmatlar hajmi 593,8 mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,4 % ini tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar o'sish sur'ati, % da hajmi, mlrd. so'mda[16]
(2019-2023 yillaryanvar-mart)



Ko'rishimiz mumkinki, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi oshgan. Xizmatlar hajmining o'sishi aholiga sifatli va mukammal tibbiy xizmatlarni ko'rsatish, ya'ni iste'molchi (bemor) uchun tananing umumiy holatini yaxshilash yoki sog'lomlashtirish uchun sifatli tibbiy xizmatni olishda ifodalangan ushbu xizmatlarni ishlab chiqaruvchisi va iste'molchisi o'rtasidagi almashinuvga oid munosabatlar majmuini, ishlab chiqaruvchiga esa ijtimoiy samarani oshirish maqsadida iqtisodiy foyda keltirishini tushunishimiz mumkin. Tibbiy xizmat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan "ishonchli" xizmatdir: iste'molchi-bemor xar doim xam kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish yoki davolashga qaratilgan qanday xizmatlar qo'llanilishini va ular keyinchalik uning sog'lig'iga qanday ta'sir qilishini o'ylamaydi. Shu bilan birga, sifatsiz tibbiy xizmatlar tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkinligining ko'p guvohi bo'lganmiz.

Shuning uchun ham xar bir tashkilot rahbari chuqur mas'uliyatni xis etgan xolda boshqaruvni to'g'ri amalga oshirishi kerak.

Xulosa. Nazariy tadqiqotlarni tasdiqlash va raqobat strategiyasining asosiy yo'nalishini tanlash uchun tibbiy tashkilotlarning raqobatbardoshligini baholash metodologiyasini ishlab chiqish zarur, ya'ni tibbiy xizmatlar bozorida tashkilotning haqiqiy mavqeini aniqlash, raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan "muammo nuqtalari"ni belgilash, tashkilotning raqobatbardoshligini ta'minlashning strategik yo'nalishlarini shakllantirish, barcha risklarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Tibbiy tashkilotlarning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omillari quyidagilardan iborat: davlatning sog'liqni saqlash sohasidagi xalqaro mavqeini oshirish; tibbiyot mahsulotlarini (xizmatlarini) xorijiy mamlakatlar bozorlariga olib chiqish; sog'liqni saqlash sohasidagi normativ-huquqiy, huquqiy va tashkiliy bazani takomillashtirish; sog'liqni saqlash sohasidagi xalqaro loyihalarda ishtirok etish; xalqaro ko'p tomonlama tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish va boshqalar.Undan tashqari, raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha tibbiy xizmatlar xalqaro savdosining rivojlanishi sharoitida bir qator mamlakatlarda ixtisoslashuvni namoyon qila boshlagan tendentsiya, ya'nitibbiyot turizmini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Jahon mamlakatlarida tibbiy xizmatlarning muayyan profili rivojlanishi, misol uchun Isroilda - onkologiya, ortopediya, reproduktiv tibbiyot, nevrologiya; Tailandda - plastik va estetik jarrohlik; Braziliyada - plastik jarrohlik; Hindiston - ortopediya, an'anaviy tibbiyot; Xitoy esa onkologiya, an'anaviy tibbiyot, qon tomir jarrohligi kabi yo'nalishlarga ko'proq ixtisoslashganligini ko'rmoqdamiz. O'zbekistonda xam tibbiyot turizmiga strategik ahamiyat berilmoqda, bu sohani rivojlantirish uchun xam taraqqiyot strategiyasida alohida maqsadlar belgilangan.

Bundan tashqari, deyarli barcha tibbiyot tashkilotlarida barcha strategik operatsiyalarni, jumladan, hodimlarni ishga olish, ishdan bo'shatish, marketing, menejment, ta'minot bo'limi kabi bo'linmalar faoliyatini bevosita bitta xodim bosh shifokor yoki uning o'rinbosari bajaradi, xolbuki, tashkilot imidjini oshirishda va har bir bo'linma faoliyatini o'z sohasi mutaxassisi bajarsa samaradorlik ko'rsatkichlari keskin ko'tarilishi kuzatiladi. Aynan ushbu vazifalarni maxsus ko'nikmalarga ega bo'lgan menejerlar bajarganda ish sifati va unumdorligi keskin oshgan bo'lar edi va rahbarlar korxonaning strategik rivojlanishiga, raqobatbardosh maqsadlar ishlab chiqishiga ko'proq vaqtlarini sarflagan bo'lar edilar. [13]

Sog'liqni saqlash korxonasining raqobatbardosh holatiga ta'sir etuvchi uning imidji tibbiy xizmatlarning narxi, sifati, tibbiy xizmatlar assortimenti, bemorlarning so'rovlariga tezkor javob berish tizimi, tashkiliy jihatlari (klinikaning dizayni, muloqot odobi, texnologik eng yangi va zamonaviy jihozlar va axborot resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi), korxonaning xududiy jihatdan qulay joylashuvi, parkovkalar bilan ta'minlanganligi, laboratoriya, statsionar, ambulator jixatdan zo'rliigi muhim ahamiyatga ega. Undan tashqari, bemorlarning ijtimoiy holati, reklama va marketing siyosatining jozibadorligi, sog'liqni saqlash korxonasining ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi ishtiroki, tezkorligi, mijozlarning ishonchiga sazovor bo'lishi kabi omillarning barchasi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.[14] Albatta, xizmat ko'rsatuvchi shifokorlarning tajribasi, ma'lumoti, portfoliosi, bajarilgan jarroxlik amaliyotining murakkabligi va mijozlar tomonidan berilgan o'tzivlar muhim ahamiyatga ega. Buning uchun korxonaning ijtimoiy tarmoqlarda xam faoliyati muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati nafaqat mahalliy aholini balki boshqa viloyatlardan yoki davlatlardan xam bemorlarni jalb

qilishi mumkin va ushbu chora tadbirlar orqali xam meditsina turizmini rivojlantirish mumkin. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun Social Media Marketingni (Ijtimoiy tarmoqlarda marketingni) rivojlantirish zarur. Demak, tibbiyot tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirish juda ko'p omillarga bog'liq va kuchli boshqaruvni amalga oshirishni talab etadi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Raqobat to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'RQ-319-son 2012 yil 6-yanvar [lex.uz].
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60 son.
3. Майкл Портер. Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран. Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Интеллектуальная литература», 2021.
4. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т. / Пер. с англ. Т. 1 – Таллинн, 1993. – 400 с.
5. Фатхутдинов Р.А. Стратегическая конкурентоспособность. – М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2005. – 504 с.
6. Бабкина Т. Н. Конкурентоспособность как фактор устойчивого развития промышленного предприятия. Автореф. дис... к.э.н. – Ижевск, 2010. – 26с.
7. Мокроносова А. Г. Конкурентоспособность предприятия : учеб. пособие для вузов [Гриф УМО] / А. Г. Мокроносов ; Рос. гос. проф.-пед. ун-т, Урал. отд-ние Рос. акад. образования. — Екатеринбург : Издательство РГППУ, 2011. — 197 с.
8. Шахбанова, И. К. Организационно-экономические аспекты обеспечения конкурентоспособности предприятий сферы услуг :автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / ШахбановаИнараКадировна; [Место защиты: Дагестан. гос. техн. ун-т]. - Махачкала, 2012. - 25 с.
9. Шодмонов Ш. Ш., Алимов Р. Х., Жўраев Т. Т. Иқтисодиёт назарияси: Ўқув қўлланма. – Т.: Молия, 2002. – 414 б.
10. Арабчиков, К.Н. Формирование конкурентоспособности предприятий частной системы здравоохранения [Текст]: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / К. Н. Арабчиков. - М., 2011. - 26 с.
11. Карамова А.С.Организационно -экономический механизм обеспечения конкурентоспособности медицинских организаций. автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / К. Н. Арабчиков. - М., 2018. - 18 с.
12. Филиппов, К.А. Развитие конкуренции в сфере здравоохранения [Текст] / К. А. Филиппов // Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса. - 2013. - № 1 (22). - С. 215-218.
13. Abduraxmanova, Sh.R. , (2021). Issues of application of competitive strategies in textile enterprises. World Economics & Finance Bulletin (WEFB) №5, Berlin, <https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/426>
14. Abduraxmanova, Sh.R.,(2023). Strategies for increasing of the textile industry in Uzbekistan. International journal of theoretical and practical research Scientific Journal. № 3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7821356>
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hisoboti.11.01.2023 yil.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi infografikasi. 2023-yil 1-yanvar holatiga.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).